

AMIR TEMUR ZARB QILDIRGAN TANGALAR

Axmedov Sanjar Bektemirovich

t.f.f.d. (PhD) Perfect University “Gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti v.b.

Rovshanov Dilshod

Perfect University talabasi

Annotatsiya: Tarixdan ma'lumki o'rta asrlar islam olamida har bir davlat asoschisi mutlaq mustaqil ekanligini avvalo xutbaga o'z nomini qo'shib o'qitish orgali va keyingi, eng muhim belgi o'z nomidan tanga pullar zarb ettirishi orgali butun olamga ma'lum qilgan. Buyuk ajdodimiz Amir Temurning ham bu boradagi faoliyati e'tiborga molikdir.

Kalit so'zları: Amir Temur, Muhammad Suyurg`atmishxon, dinor, tanga, miri, xon, uch halqa timsoli, baxt burjlari

Kirish qismi: Agar Yevropada birinchi byudjet tuzilishi Angiliya va Fransiyada XVII-asrda paydo bo'lgan bo'lsa, Amir Temur o'z davlatida undan 3 asr avval mamlakatni idora etishda byudjetning dastlabki kurtaklarini ishlab chiqdi va joriy qildi. Moliya-pul tizimini rivojlantirishni mamlakatni yuksalishiga kuchli ta'sir qilardi. Pulning jamiyat iqtisodida o'ynagan roli kuchayib borganligi uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarida olinadigan soliqni naqd aqcha bilan olish imkonini berdi. Bu davrda asosan qishloq xo'jaligi bilab bog'liq ikki turdag'i- xiroj va ushr solig'idan boshqa savdogarlar va hunarmandlar zakot to'laganlar, chegaradan o'tgan mollar hisobidan boj olingan. Bular davlat xazinasi manbai bo'lgan. Bundan tashqari oltin va kumushga o'xhash nodir metallarni qazib olish va ularni sotish, tangalar zarb qilish, turli jarimalar, sovg'alar, varissiz mol mulklar davlat xazinasiga kelib tushar edi. Davlat byudetidagi xodimlarga oylik maosh berishda pul va ya`ni moddiy normalarida to'lah tizimi qo'llanilgan.

Asosiy qism: Bu davrida asosan ikki xil pul birligi chiqarilgan: vazni 6 grammlik kumush va 1,5 gr vaznli tanganing to'rtadan bir qismiga tenglashtirilgan mayda miriy tangalar chiqarilgan ("Miri" so'zi Amir Temurning unvoni "Amir" dan kelib chiqqan). Bundan tashqari maydaroq bo'lgan tanga va nimir tangalar (yarimtanga) muomalada bo'lgan.

Amir Temur davrida tilla tangalarning 12 turi 1397-1382 yillari Xorazm bosib olingandan so'ng zerb etila boshlangan. Ayni vaqtida, oltin tangalarda oldin bosilgan "Dinor" so'zi Temur tangalarida yo'q edi. Xorazm tilla tangasi kumush dinorga, ya`ni 6 dirhamga teng edi. Dinor so'zi tilla tangani emas, balki undagi kumush miqdorini ya`ni bu tangada o'sha vaqtida mavjud bo'lgan tanga tizimidagi oltin-kumush nisbatiga binoan mavjud kumush miqdoriga teng edi. Misdan yasalgan "Fulus" yoki "Fulus tangalari" juda keng tarqalgan edi. Ular asosan Amir Temur nomidan, Samarqand va boshqa bir qator viloyatlardagi katta xajmdagi

mayda chakana savdo ehtiyojlarini qondirish maqsadida chiqarilgan. Amir Temur va Temuriylar tangalari o'ziga xos uslubi: ulardagi o'simlik va geometrik bezaklarni mutanosibligi; arab, mug'ul va turk yozuvlari bitilgan doiralar; yulduzlar burji, "baxt burjlari" bilan boshqa tangalardan farq qilgan. Tangalarning aversida, odatda ular muomalada bo'lgan hudud xonining nomi, "Sulton" unvoni bilan Muhammad Suyurg'at mish va uning o'g'li Mahmud Sultonlar nomi, so'ng Ko'rragon (xon kuyovi) faxriy unvonga ega Amir Temur va uning ostida esa e'tiborga molik yozuv tushirilgan.

1397-yildan boshlab tangalarda "taxt va davr vorisi - Muhammad Sulton" yozuvi paydo bo'lgan. U Amir Temurning taxt vorisi deb e'lon qilingan, ammo 1403-yilda vafot etgan nabirasi edi.

Amir Temur tangalarining reversida asosan tanga chiqarilgan joyning nomi, sanasi (so'zlar yoki raqamlar bilan), kalima va to'rt halifa nomi, uchta xalqadan iborat bo'lgan tamg'a ham bo'lgan. Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixo uni "Temur gerbi" deb ataydi. Uning yozishicha, Amir Temur "tamg'ani hamma tangalarga, o'zining muhrlariga, buyuk Amir buyrug'i bilan tayyorlangan har bir narsaga bosishni" buyurgan. Uch halqa Amir Temur "dunyoning uch qit'asi" hukmdori ekanligini bildiradi.

Amir Temur davlatida pul chiqaradigan zarbxonalarning aksariyati pulga bo'lgan katta ehtiyoj sababli jadal sur'atlar bilan ishlagan. Shu sababli tangalarning tashqi ko'rinishiga katta e'tibor berilmagan va qalbaki tangalarning paydo bo'lismish xatari mavjud edi. Bunga Amir Temurning Hirot, Marg'i, Maranda, Tabris, Shemoxa, Shabonqara, Sheroz, Bag'dod, Qum, Sultoniyalarni qo'shibolanganidan keyin chiqarila boshlagan tangalar sabab bo'lgan. Mana shunday qalbaki tangalarga Toshkent xazinasiga tegishli Sheroz tangalarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Fors Amir Temur tomonidan birinchi marta 1387 yilda egallangani va dastlabki vaqtida u erda Suyurg'ot mishxon nomi tushirilgan tangalar chiqarilganini ta'kidlab o'tmoq lozim. Toshkent xazinasining Sheroz tangalariga esa, Mahmudxon nomi tushirilgan. Bu esa Sheroz tangalari Amir Temur Mansur Muzaffariydan shaharni butunlay tortib olganidan keyin chiqarilganini bildirib, Sheroz tangalarini qalbaki ekanligini isbotlaydi. Qalbaki tangalar chiqarishni bartaraf qilish maqsadida Amir Temur pul chiqarishni maxsus tekshiruvchilar - sohibyorlar tekshirib turadigan, qattiq davlat nazorati ostidagi pul zarbxonalarini tuzgan edi.

Amir Temurning pul siyosati har doim mablag'bilan ta'minlash va xazinasini har doim to'latib turish zarur bo'lgan davlat ehtiyojlariga xizmat qilardi.

1402 yili Mahmudxon vafot etgach, Amir Temur boshqa qo'g'irchoq xon tutmay o'sha Mahmudxonning nomi bilan pul zarb qilishni davom ettiradi.

Bu tangalarning aversida:

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

"Lo iloha illoloh Muhammadrasul Olloh" deb - Qur'ondan kalima yozdirdi. Tangalarning to'rtburchagiga esa to'rt xalifa: Abu Bakr, Umar, Usmonva Alinomlarini yozdirdi.

Tanganing reversida:

"Suyurg'otmishxon yorlig'i Amir Temur Ko'ragan akmonu", deb yozilgan. Samarqandda (1380, 1381, 1383, 1384, 1384, 1386 y.) zARB qilingan kumush mirilarga ham ana shunday Suyurg'atmishxon va Amir Temur nomi yozilgan.

Sulton Mahmudxonva Amir Temur nomidan zARB qilingan kumush tanga va mirilarning aversida:

"Lo iloha illoloh Muhammadrasul Olloh", reversida esa: "Sulton Mahmudxonyorlig'i Amir Temur Kuragan ak-mano"- deb yozilgan. Tangalar asosan kumushdan zARB qilingan. Og'irlik vazni 6 grammni tashkil qilgan bo'lsa, u tanga deb atalgan. Tanganing to'rtadan biriga to'g'ri keladigan 1,5 grammlik kumush pullar esa Amir Temurnomi bilan «miryokimiri» deb yuritilgan. Undan boshqa kundalik turmushda ishlatiladigan juda ko'p mis chaqalar Amir Temur nomi bilan zARB qilingan. Shuningdek, tangalar Samarqand, Buxoro, Afg'oniston va Ozarbayjon singari mamlakatlarning Ardabil, Astrobod, Astra, Darband, Domg'on, Boku, Mahmudobod, Mordin, Isfaxon, Qum, Qirmon, Shabanqora, Xoy, Tabriz, Sabzavor, Sova, Sheruz, Shemaxa, Shabron singari qirqga yaqin shaharlarda zARB qilingan.

Quyida Amir Temur va Sulton Mahmudxon nomi bilan Afg'oniston, Eron, Iroq va Ozarbayjon shaharlarida turli davrlarda zARB qilingan tangalarning reversidagi yozuvlardan ayrim namunalar keltiramiz: Sulton Mahmudxon yorlig'i Amir Temur Ko'ragon haldolloh mulikihu, zARB Astrobod, Sulton Mahmudxon, Amir Temur Ko'ragon.

Temur saroyida arab yozuvi bilan birga eski turk (uyg'urcha) yozuv ham qo'llanilgan. Bu yozuv bilan bitilgann yozma yodgorlik va yorliqlar temuriylar sulolasining eng oxirgi vakillari davrida ham ishlatilib kelingan. Amir Temur o'zining 1391 yili Oltin O'rda xoni To'xtamishga qarshi harbiy yurishlari haqidagi xotira toshini ham ana shu yozuv bilan yozdirgan edi. Amir Temur tangalarida biz arabcha, forscha, turkcha va mo'g'ulcha so'zlarni uchratamiz. Masalan: arabcha: "Olloh uning podsho va sultonligini mangu boqiy qilsin", forscha zARB, yorlig'i va mo'g'ulcha akmanu - mening so'zim, Ko'ragan (kuyov) singari so'zlarni uchratamiz. Biz quyida Amir Temur va Sulton Mahmudhon nomi bilan Afg'oniston, Eron, Irok va Ozarbayjon shahdlarida tur 1 davrlarida zARB qilingan tangallarning orqa tomonidagi ellardan ayrim namunalar keltiramiz.

Xulosa. Amir Temurning geometrik va har hil nafis naqshlar bilan bezatilgan tangalarga nazar tashlar ekanmiz ko'z o'ngimizda bu tangallarga urilgan tang`alar gavdalaniadi. Bu tamg`alar uchta uchburchaksimon kichik halqalardan iborat. Amir Temur Markaziy Osiyo Hurosion va Iroq Eron yerlarini o'z saltanatiga qo'shib olishga ot surib ko'tarilgan bo'lsa ham lekin uni boshqarish, iqtisodi, fan va

madaniyatini yuksaltirishda turli kengash va chora tadbirlar qo'llangan, o'ziga hos strategiya va taktika sohibi, diplomat islohatchi olujanob vatanparvar davlat arbobi bo'lganligini tariziyy isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar - 1-6-sonlar - 70-bet
2. XIII-XV asrlarda Tana (Azov) tarixi. 1-jild. XIII–XIV asrlarda Tana
3. Amir Temur v mirovoi istorii - 65-bet
4. Sharq epigrafiyasi - 21-jild - 83-bet

